

Mikromoliya tashkilotlariga moliyaviy resurs ajratish tartibi va shartlari

Ushbu moliyaviy yordam O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrda "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-193-son Farmoni hamda Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda-Kompaniya) Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizomga asosan Kompaniya tomonidan taqdim etiladi.

Mikromoliya tashkilotlariga qo'yilgan talablar	
1	O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatdan o'tgan va faoliyat yuritayotgan
2	Tugatilish bosqichida bo'lmagan, ularga nisbatan to'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida ish qo'zg'atilmagan
3	Murojaat sanasida kreditlar (lizing, bank kafolati, akkreditiv) va soliqlar bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorligi mavjud bo'lmagan
4	Ilgari sud jarayoniga o'tgan qarzdorlik vujudga kelmagan
5	Yomon ("C" va undan past) kredit tarixi va Kompaniya yordamlari bo'yicha salbiy tarixga ega bo'lmagan
6	So'nggi ikki hisobot yili davri uchun moliyaviy natijalarga ko'ra faoliyatini zarar bilan yakunlamagan
7	Tashkil etilgani va faoliyat yuritayotganiga 2 yildan kam bo'lmagan va shakllangan ustav kapitali miqdori 5 mlrd so'mdan yuqori bo'lgan
8	NPL ko'rsatkichi 2 (ikki) foizdan yuqori bo'lmagan
9	2-son kartoteka bo'yicha qarzdorligi mavjud bo'lmagan
10	Kapitalning yetarlik koeffitsiyenti 10%dan kam bo'lmagan
11	Barcha yirik tavakkalchiliklarining (jami summasi xususiy kapitalning 10 foizi va undan yuqori bo'lgan bir qarz oluvchi yoki o'zaro aloqador qarz oluvchilar guruhiga doir tavakkalchiliklar) umumiy miqdori mikromoliya tashkiloti xususiy kapitalining 5 barobaridan oshmagan

Kompaniya tomonidan moliyaviy resurs taqdim etilmaydigan yo'nalishlar	
1	Qimorxonalar va billiardxonalar, alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish va (yoki) ular savdosini tashkil etish
2	Ulgurji savdoni tashkil etish va faoliyatini yuritish
3	Ilgari olingan kredit (lizing)larni yoki boshqa har qanday qarzni qaytarish
4	Qishloq xo'jaligi yo'nalishida amalga oshiriladigan loyihalar (bundan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va qadoqlashda foydalaniladigan bino va uskunalar mustasno)
5	Sug'urta kompaniyalari faoliyatini tashkil etish
6	Yengil avtotransport vositalarini xarid qilish
7	Alohida tashkil etiladigan umumiy ovqatlanish va avtomobillarga yonilg'i quyish shoxobchalari bino va uskunalar (bundan savdo va servis, yo'l bo'yi infratuzilma obyektlari, jumladan kompleks tarkibida avtomobillarga yonilg'i quyish, savdo hamda umumiy ovqatlanish shoxobchalari faoliyatini tashkil etish, "yashil" texnologiyalarni, jumladan elektrmobillarni quvvatlantirishda foydalaniladigan bino va uskunalar mustasno)

***Ushbu yo'nalishlardan boshqa yo'nalishlarga moliyaviy resurs taqdim etilishi Kompaniya tomonidan ko'rib chiqiladi.**

Moliyaviy resurs muddati	
1	Investitsiya loyihalari uchun → 36 oygacha, 6 oygacha bo'lgan imtiyozli davr bilan
2	Aylanma mablag'larni o'ldirish uchun → 12 oygacha, 3 oygacha bo'lgan imtiyozli davr bilan

Moliyaviy resurs taqdim etish yo'nalishlari	
1	Ishlab chiqarish
2	Xizmat ko'rsatish
3	Yashil va energiya samarador texnologiyalarni joriy qilish

Boshqa shartlar va talablar	
1	Resursning haqiqatda ajratilgan miqdoriga mutanosib ravishda 0,5 foiz miqdorida bir martalik komission haq to'lanadi
2	Resurs mablag'larini tadbirkorlik subyektlaridan haqiqatda undirilishidan qat'iy nazar Mikromoliya tashkiloti tomonidan Shartnomada belgilangan muddatlarda Kompaniyaga qaytariladi
3	Mikromoliya tashkilotlari tomonidan resurs mablag'lari hisobidan o'zini o'zi band qilgan shaxslarga mikrokreditlar faqat tadbirkorlik faoliyati uchun ajratilishi shart.

Mikromoliya tashkilotlari tomonidan moliyaviy resurslari hisobidan kredit ajratish miqdori		
1	Kichik tadbirkorlik subyektlari	300 million so'mgacha bo'lgan miqdorda milliy va xorijiy valyutada
2	O'zini o'zi band qilgan shaxslar	100 million so'mgacha bo'lgan miqdorda milliy va xorijiy valyutada

Mikromoliya tashkilotlari tomonidan taqdim etiladigan hujjatlar	
1	Resurs ajratilishi yuzasidan buyurtma (murojaat)
2	Ustav, guvohnoma va litsenziya nusxasi (ta'sis hujjatlari, ularga kiritilgan barcha o'zgartirishlar)
3	Ta'sischilarning resurs olish yuzasidan qarori va buyrug'i
4	Resurs bo'yicha bitimlarni imzolashga vakolatlangan shaxsni tayinlash to'g'risidagi buyruqlar yoki boshqa ichki hujjatlari, hamda ularning pasport ma'lumotlari nusxalari
5	So'nggi hisobot yili va oxirgi chorak uchun balans ma'lumotlari (F1 va F2), tasdiqlangan holda, buxgalteriya hisobotlarining haqqoniyliги yuzasidan ijobiy auditorlik xulosasi
6	Kartoteka №2, hisob-raqamlaridagi mablag'lar qoldig'i hamda so'nggi yil uchun hisob-raqamlaridagi aylanmalar haqida xizmat ko'rsatuvchi banklardan ma'lumotnomalar (tasdiqlangan va elektron shaklda)
7	Ta'minot bo'yicha barcha hujjatlar (mustaqil baholash dalolatnomasi, garov ta'minoti xujjatlari, sug'urta yoki kafillik shartnomalari)
8	Murojaat sanasidagi KATM ma'lumotnomasi va kredit potfeli to'g'risida ma'lumot
9	Mavjud moliyaviy majburiyatlar bo'yicha ma'lumotnomalar (taqdim etilgan kafillik, olingan moliyaviy yordam, debitorlik va kreditorlik ma'lumotlari va h.k.)
10	Murojaat sanasidagi soliq qarzdorligi to'g'risida ma'lumot (QR kodli Soliq qo'mitasining ma'lumotnomasi)

****zarur hujjatlar mazkur ro'yxat bilan cheklanmaydi va Kompaniya qo'shimcha hujjatlar va ma'lumotlarni talab qilishi mumkin**

Ta'minot sifatida quyidagilar qabul qilinadi	
1	Bino-inshootlar va mulkiy majmualar
2	Asbob-uskunalar
3	Avtotransport vositalari
4	Maxsus texnikalar
5	Pul mablag'lari, qimmatbaho metallar
6	Qimmatli qog'ozlar
7	Sug'urta bozorida ijobiy ko'rsatkichlar va obro'ga ega sug'urta kompaniyasining qaytmalik xatari sug'urta polisi
8	Boshqa likvid mol-mulklar

Ta'minot sifatida quyidagilar qabul qilinmaydi	
1	Ishlab chiqarish muddati 1 yildan oshgan ko'char mulklar
2	Tashkilot hududi ichida joylashgan va qurilishning bevosita qizil chizig'iga chiqish imkoni bo'lmagan bino-inshootlar va yerlar
3	Umumiy yer maydonida joylashgan va turli mulkdorlarga tegishli bo'lgan imoratlar va yerlar
4	Mustaqil baholovchi tashkilot tomonidan eskirish darajasi 60 foizdan ko'prog'ini tashkil etilganligi belgilangan asbob-uskunalar
5	Majmuaing umumiy texnologik zanjiridan mustaqil ravishda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan alohida uskunalar
6	Boshqa binolar bilan umumiy konstruksiyaviy unsurlarga ega inshootlar va yerlar
7	O'zining tarixiy, madaniy yoki boshqa qiymati tufayli, yoxud boshqa sabablarga ko'ra garovga qo'yilishi, davlat tasarrufidan chiqarilishi, xususiy lashtirilishi va qaytarib olinishi mumkin bo'lmagan mulk
8	Qonunchilikka binoin undirilishi ta'qiqlangan fuqarolar mulkining alohida turi

Resurs moliyaviy yordamidan foydalanish istagida bo'lgan mikromoliya tashkilotlari 10 (o'n) ish kuni davomida buyurtma va hujjatlarni assets@edcom.uz pochta manziliga taqdim etishlari mumkin. Qo'shimcha ma'lumotlar uchun telefon raqami +99871-238-69-06(07)